

**O‘ZBEKISTON KORXONALARIDA MENEJMENT
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

Sadriiddinova Iqboloy Ulug‘bek qizi

Toshkent shahrtidagi Turin Politehnika Universiteti

Menejment va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatning kuchayishi, ishlab chiqarish texnologiyalarining jadal yangilanishi, korxona faoliyatini tashkil etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish talabi boshqaruv tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda korxonaning iqtisodiy muvaffaqiyati nafaqat moddiy resurslar yoki texnik bazaga, balki avvalo boshqaruv tizimining samaradorligiga bog‘liq. Samarali boshqaruv esa yuqori menejment madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois menejment madaniyatini shakllantirish masalasi O‘zbekiston korxonalari uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Menejment madaniyati – bu korxona boshqaruv tizimida qo‘llaniladigan tamoyillar, boshqaruv uslublari, boshqaruv xodimlarining kasbiy mahorati, etik me‘yorlari, kommunikatsion munosabatlari va tashkiliy qadriyatlarning yaxlit tizimidir. U nafaqat boshqaruvning tashkiliy tomonlarini, balki inson omilini ham qamrab oladi. Bunday yondashuv korxona jamoasida ijobiy psixologik muhit yaratadi, ishlab chiqarish intizomi, mehnat samaradorligi va korxona raqobatbardoshligini oshiradi.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan iqtisodiy islohotlar strategiyasi, xususiyl sektorni qo‘llab-quvvatlash, korporativ boshqaruv tizimini joriy etish choralari menejment madaniyatini takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Xususan, korxonalarni modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida menejmlarning professional salohiyatini oshirish masalasi kun tartibiga chiqmoqda.

O‘zbekiston korxonalarida menejment madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari, hozirgi holati va uni takomillashtirishning amaliy yo‘nalishlari

tahlil qilinadi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, korxonalarda ko‘plab boshqaruv muammolari aynan menejment madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Korxonalarda boshqaruv madaniyatini yuksaltirish, boshqaruvning demokratik va insonparvar tamoyillaridan keng foydalanish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini amaliyotga joriy etish hozirgi davrning ustuvor vazifasidir.

Menejment madaniyati – bu korxona boshqaruvi jarayonida shakllangan boshqaruv qadriyatlari, tamoyillari, boshqaruv me‘yorlari, liderlik uslublari va ijtimoiy-psixologik munosabatlarning majmuidir. Boshqacha aytganda, menejment madaniyati korxona ichki tartibi va boshqaruv xodimlarining umumiy madaniy saviyasini ifoda etadi. U nafaqat boshqaruv tizimining tashkiliy tomonini, balki menejrlarning shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va kommunikativ ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy menejment nazariyasida boshqaruvning samaradorligi ikki asosiy omilga tayanadi:

Tashkiliy va texnologik omillar;

Insoniy omillar (boshqaruv madaniyati, psixologiya, motivatsiya).

Shunday qilib, menejment madaniyatining asosini tashkiliy tartib, korxonaga xos qoidalar, mehnat intizomi, rahbar va xodimlar o‘rtasidagi muloqot madaniyati tashkil etadi. Agar boshqaruv madaniyati kuchli bo‘lsa, korxona samaradorligi ham yuqori bo‘ladi.[3]

Menejment madaniyati bir necha asosiy komponentlardan iborat:

1. Tashkiliy madaniyat. Korxona ichki muhitini tashkil etuvchi qoidalar, qadriyatlar
2. Kasbiy madaniyat. Menejning bilim, tajriba va malakasi darajasi
3. Axloqiy madaniyat. Rahbarning o‘dab-axloq normalariga rioya qilishi
4. Kommunikativ madaniyat. Jamoa bilan to‘g‘ri muomala qilish qobiliyati
5. Innovatsion madaniyat. Yangiliklarni qabul qilish va joriy etish qobiliyati

6. Huquqiy madaniyat. Qonunlar va mehnat kodeksiga amal qilish madaniyati

Menejment madaniyatining o'ziga xosligi shundaki, u korxonaning strategik maqsadlariga xizmat qiladi. Chunki yaxshi tashkil etilgan boshqaruv tizimi korxona brendi va imijini shakllantirishga, mijozlar ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.

Boshqaruv madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tizimlilik;
- dinamiklik;
- moslashuvchanlik;
- ijtimoiylik;
- milliy qadriyatlarga tayanishi.[4]

Shuningdek, menejment madaniyati milliy mentalitetga ham bog'liq. O'zbekistonda boshqaruv jarayonlarida hurmat, jamoaviylik va hamkorlik tamoyillarining kuchli bo'lishi milliy qadriyatlar ta'sirida shakllangan.

Menejment madaniyati korxona faoliyatida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Ular boshqaruv tizimining samarali ishlashini ta'minlaydi va korxonani rivojlantirishga xizmat qiladi. Asosiy funksiyalar quyidagilardan iborat:

Tashkiliy-funksional funksiya – boshqaruv jarayonining aniq tizimini yaratish, korxona tuzilmasini shakllantirish, vazifalar taqsimoti va boshqaruv tartibini belgilash;

Axborot-kommunikativ funksiya – tashkiliy bo'linmalar va xodimlar o'rtasida samarali axborot almashinuvi hamda muloqotni ta'minlash;

Motivatsion funksiya – xodimlarni mehnatga undash, ularda ishga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni shakllantirish;

Nazorat funksiyasi – qabul qilingan boshqaruv qarorlarining bajarilishi ustidan muntazam nazoratni tashkil etish;

Madaniylashtiruvchi funksiya – xodimlarda mehnat madaniyati, boshqaruv etikasi va kasbiy odobni rivojlantirish;

Innovatsion funksiya – boshqaruvda yangi texnologiyalar va ilg'or usullarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish;

Integratsion funksiya – jamoada hamjihatlikni ta'minlash, umumiy maqsad sari birlashish ruhini shakllantirish.

Bu funksiyalar boshqaruv jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi. Agar menejment madaniyati kuchli bo'lsa, korxona ichki muammolarni tezda bartaraf etadi va tashqi o'zgarishlarga moslashuvchan bo'ladi.

O'zbekiston korxonalarida menejment madaniyatini shakllantirish masalasi bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib, uning iqtisodiyotning barqaror rivojlanishidagi o'rnini beqiyosdir. Korxona faoliyatining samaradorligi, raqobatbardoshligi, innovatsion imkoniyatlari, mehnat unumdorligi va jamoa psixologik muhitining sog'lomligi ko'p jihatdan aynan boshqaruv madaniyatining qanchalik rivojlanganligiga bog'liq. Zamonaviy menejment tizimi shuni ko'rsatadiki, boshqaruv jarayonida inson omilining roli kuchayib bormoqda. Agar ilgari boshqaruvning asosiy e'tibori iqtisodiy ko'rsatkichlar va resurslarni taqsimlashga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda korxonani samarali boshqarish – bu, avvalo, inson resurslarini boshqarish, mehnat motivatsiyasini shakllantirish va jamoaviy hamkorlik ruhini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqot davomida shuni aniqlash mumkinki, menejment madaniyatining asosiy mohiyati – boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy, psixologik, etik va kommunikativ jihatlar tizimi hisoblanadi. Boshqaruv madaniyatini shakllantirish jarayonida rahbarning shaxsiy fazilatlarini, boshqaruv uslubi, xodimlar bilan munosabatida ijtimoiy-psixologik muhit yaratish qobiliyati hal qiluvchi omildir. Shu bilan birga, menejment madaniyatini tashkil etishda korxonada amal qiladigan korporativ qadriyatlar, xizmat intizomi, mehnat muhitining tashkiliy holati, motivatsiya tizimining mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston korxonalarida boshqaruv madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar mavjud. Jumladan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, korporativ boshqaruv tizimini joriy etish, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan

davlat siyosati, boshqaruv sohasiga raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi bu sohaning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, menejment madaniyatining rivojlanishida ayrim muammolar ham mavjud. Ularga rahbarlarning zamonaviy boshqaruv ko'nikmalariga ega emasligi, korxonalarda an'anaviy boshqaruv tizimining kuchli saqlanib qolganligi, xodimlar o'rtasida mas'uliyat va intizomning pastligi, motivatsiya tizimining samarali emasligi kabi omillar kiradi.

Shu bois, korxonalarda menejment madaniyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

rahbarlar uchun menejment bo'yicha muntazam treninglar va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;

boshqaruv tizimiga zamonaviy ilg'or tajribalarni joriy etish;

korporativ madaniyatni rivojlantirish va jamoada ijobiy psixologik muhit yaratish;

xodimlarni rag'batlantirishning adolatli tizimini yo'lga qo'yish;

boshqaruvda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish;

mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali kommunikatsiya tizimini yo'lga qo'yish;

etika va boshqaruv madaniyatiga qat'iy amal qilish.[5]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, menejment madaniyatini rivojlantirish O'zbekiston korxonalarining iqtisodiy rivojlanishi, ularning xalqaro raqobatga moslashuvi va investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omildir. Samarali boshqaruv madaniyati shakllangan korxonalarda boshqaruv qarorlari o'z vaqtida va obyektiv qabul qilinadi, jamoada mehnat muhitining sog'lomligi ta'minlanadi, xodimlarning tashabbuskorligi va ijodkorligi qo'llab-quvvatlanadi. Natijada korxonaning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi. Shu sababli, menejment madaniyatini shakllantirish masalasi nafaqat boshqaruv tizimining, balki umuman mamlakat iqtisodiyotining kelajagi uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fayzullayev A.X. Korxona iqtisodiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019. – B. 45–52; 118–130.
2. Tursunov B.O. Menejment asoslari. – T.: “Iqtisodiyot”, 2020. – B. 67–80; 155–160.
3. Hasanov M.Q. Biznes rejalashtirish va boshqaruv qarorlari. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2021. – B. 90–102; 144–150.
4. Kotler Ph. Marketing Management. – New Jersey: Prentice Hall, 2003. – P. 310–320; 460–468.
5. Xasanov B.B. Strategik menejment. – Toshkent: Iqtisodiyot universiteti, 2018. – 176 b.